

## KEKSALARNING JAMIYATDAGI O‘RNI VA IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH.

**Musurmonova Dilso‘z Majid qizi**

*Samarqand davlat Universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Aniq va tabiiy fanlar  
fakulteti Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida Ijtimoiy ish yo‘nalishi 21.16-  
guruh talabasi*

*Mazkur maqolada qariyalarning ijtimoiy faolligi insoniyatning o‘tmish ma’naviy-merosini o‘zlashtirish va yangilanayotgan O‘zbekistonda avlodlararo*

*vorisiylikni ta’minlash, yoshlar tarbiyasida keksalarning o‘rni tobora ortmoqda.*

*Qariyalarning ijtimoiy faolligi insoniyatning o‘tmish ma’naviy-merosini o‘zlashtirishva yangilanayotgan O‘zbekistonda avlodlararo vorisiylikni ta’minlash kabi masalalar ilmiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *avlodlararo vorisiylik, ijtimoiy faollik, qarish, zamonaviy gerontologiya, tabiiy fiziologik qarish, qarilik, ijtimoiy gerontologiya, gerontologiya, ruhiy qarish, keksalik, sog‘lom keksalik, keksalik ontologiyasi.*

### **ABSTRACT**

In this article, the social activity of the elderly is to master the past spiritual heritage of humanity and to ensure intergenerational succession in modernizing Uzbekistan, the role of the elderly in the education of young people is increasing. Issues such as the social activity of the elderly, assimilation of the past spiritual heritage of humanity, and ensuring intergenerational succession in modernizing Uzbekistan have been analyzed from a scientific and philosophical point of view. **Key words:** intergenerational succession, social activity, aging, modern gerontology, natural physiological aging, aging, social gerontology, gerontology, mental aging, old age, healthy old age, ontology of old age.

### **KIRISH**

Dunyo sivilizatsiyalari rivojida insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy faolligining asosini tashkil etuvchi mezon avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omili ekanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jamiyat ijtimoiylashuvida, avlodlararo vorisiylikni ta’minlashda, yoshlar tarbiyasida keksalarning o‘rni tobora ortmoqda. Qariyalarning ijtimoiy faolligi insoniyatning o‘tmish ma’naviy-merosini o‘zlashtirish va yangilanayotgan O‘zbekistonda avlodlararo vorisiylikni ta’minlash, jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisod va siyosat, fan va din, huquq va axloq, san’at va adabiyot, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat va madaniyatning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qariyalarning ijtimoiy-ma’naviy faolligi keksa yoshdagi insonlarning ijtimoiy guruhi shakllanishiga olib keldi. Natijada qariyalarning ijtimoiy jarayonlardagi

munosabatini yuksaltirish, avlodlararo vorisiylikni ta'minlashni taqozo etmoqda. Bu jarayon hozirgi vaqtda ijtimoiy munosabatlarda keksalik holatidagi jiddiy

o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bois, hozirgi davrda qariyalarning ijtimoiy faolligi yangilanayotgan o'zbekistonda avlodlararo vorisiylikni ta'minlash omillarini ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy jihatlarini tizimli tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekistonning yangi qiyofasi, uchinchi Uyg'onish davri poydevori yaratilayotgan bugungi kunda ma'naviy omillarga, ularning jamiyat rivojidadagi o'rni va ahamiyati masalalariga ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda. Zero, “ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish”<sup>1</sup> Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim vazifasiga aylandi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida insoniyatning qarishi jahon hamjamiyatini qamrab oluvchi global va ko'p qirrali muammo sifatida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, “2015-yildan 2050-yilgacha 60 yoshdan oshgan dunyo aholisi salmog'i 12 foizdan 22 foizga qariyb ikki barobar ortadi. 2020-yilga kelib, 60 yosh va undan katta yoshdagilar soni 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan ko'p bo'ladi. 2050-yilda qariyalarning 80 foizi past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashaydi. 2030-yilga kelib, dunyoda har 6 kishidan 1 nafari 60 yosh va undan katta yoshdagilar bo'ladi. Ayni paytda 60 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushi 2020- yildagi 1 milliarddan 1,4 milliardga oshadi. 2050 yilga borib, 60 va undan katta yoshdagi dunyo aholisi ikki barobarga (2,1 milliard) oshadi. 2020 yildan 2050 yilgacha 80 yosh va undan katta yoshdagilar soni uch baravarga ortib, 426 million kishiga etishi kutilmoqda. Aholining qarish sur'ati o'tmishdagiga qaraganda ancha tez davom etmoqda. Oqibatda esa barcha mamlakatlar o'zlarining sog'liqni saqlash

va ijtimoiy tizimlarini ushbu demografik o'zgarishlardan yuqori darajada foydalanishga tayyor bo'lishini ta'minlash uchun katta muammolarga duch kelmoqda». Bizningcha, jamiyatda qarish jarayoni individual xarakterga ega bo'lib, insonlarni bir jarayondan ikkinchi holatga o'tishi, ya'ni yosh chegarasini oshib borishi, keksa yoshdagi insonni aqliy va xatto jismoniy mehnat faoliyatini saqlab qolgan qariyalarning ijtimoiy faollini shakllanishiga olib keladi.

Yangi O'zbekistonda qariyalarning jamiyatdagi roli va ijtimoiy faolligini oshirish, avlodlararo vorisiylikni ta'minlashda keksalarning ijtimoiy mavqei va xulqatvoriga e'tibor berish, ijtimoiy madaniy barqarorlikni ta'minlashga erishishda ehtiyoj oshib bormoqda. SHunday ekan, qarish jarayoni individual-biologik xarakterga ega bo'lib, qariyalar faoliyatining to'xtash davri bir ijtimoiy maqomdan ikkinchisiga o'tish chegarasi sifatida qaraladi. Madomiki, keksa yoshdagi ijtimoiy moslashuv o'z-o'zini idrok etishi, hayotning o'zgaruvchan davriga moslashish (ayniqsa, nafaqaga chiqqandan keyin), yashash yoki yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish va jamiyatdagi o'zgarishlarga munosabat bildirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Keksalik davrida qarish jarayoni bilan izohlanadi. Bu keksalikda inson hayotini

yaxshilash uchun sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish zarur. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda “katta va keksa yoshdagi fuqarolarga uzoq muddatli tibbiy yordam ko‘rsatishning zamonaviy modelini yaratish, uyda

ijtimoiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda boshqa qator chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi gerontologik yordam sifati va qulayligini oshirish”ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to‘g‘risida” Farmoni, 2015 yil 18 fevraldagi 2302-son qarori bilan tasdiqlangan «Keksalarni e‘zozlash yili» Davlat dasturi, 2016 yil 28 dekabrda PQ-2705-son “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi «Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 816-son Qarorlari Yangi O‘zbekistonda qariyalarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish, avlodlararo vorisilikni ta‘minlashning muhim omili sifatida ahamiyat kasb etadi. Keksalik jamiyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlardan buyon insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Mangu yoshlik, uzoq umr va mangu haqiqat haqidagi afsona va rivoyatlar insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida turli xalqlarning ta‘limotlarida o‘rganilgan. Dastlab, inson qarishining muhim jihatlari xususida qadimgi yunon tabibi Gippokrat “qarishni tabiiy issiqlikning kamayishi va suvsizlanish natijasi”, antik davr faylasuflari Platon, “qorong‘ulik, ayniqsa, o‘rta yoshdagi turmush tarzi ta‘sir qilishini”, Aristotel, “qarish jarayonini tug‘ilishdan boshlab issiqlikning asta-sekin kamayishi bilan izohlab, inson hayotini yoshlik, etuklik va qarish” kabi bosqichlari ochib bergan.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari Forobiy «Risolalar» da qarilikning ijtimoiyaxloqiy jihatlari, Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida inson qarishining ilmiyfalsafiy va tabiiy asoslarini, Ibn Sino «Tib qonunlari» kitobida keksalikning tibbiybiologik xususiyatlarini falsafiy-metodologik jihatlari tadqiq qilingan. XIX-XX asrda Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida insonning tabiiy va ijtimoiy keksalik muammolari umummilliy ahamiyatini asoslaganlar.

MDH olimlaridan Z.A.Butueva, A.Komfort, L.V.Mityakina, I.A.Podolskaya, I.V. Jdanova, L.V.Proxorova, O.P.Kashina, A.V.YArkin, R.E.Gergilov, N.A.Borisov, N.R.Xupeniya, A.T.Rostova, I.G.Shestakova, E.M.Orlova, L.R. Asxanova kabilar keksalikning insonlar sog‘lig‘idagi ba‘zi o‘zgarishlari genetik ahamiyatga ega bo‘lsada, aksariyat odamlarning etnik kelib chiqishi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holati kabi xususiyatlariga bog‘liq ekanligi qayd etganlar. Z.A.Butueva “Odamlar bolaligida, xatto rivojlanayotgan homilada yashayotgan muhit ularning shaxsiy xususiyatlari bilan birgalikda qarishlariga ham muayyan ta‘sir ko‘rsatadi”, deya hayot davomida sog‘lom xulq-atvorni saqlash, xususan, to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik oshirib borish kerakligini ta‘kidlaydi. Bizningcha, jismoniy va aqliy salohiyatni yaxshilash inson salomatligining muhim omillaridan hisoblanib qarishga oid sog‘liqni saqlash choralari ishlab chiqishda nafaqat keksalik bilan bog‘liq

yo‘qotishlarni engillashtiradigan individual va ekologik, ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni ham hisobga olish muhimdir.

O‘zbek faylasuf olimlari M.Abdullaeva, N.Aliqoriev, A.Begmatov,

M.Bekmurodov, M.Ganieva, N.A.Shermuxeamedova, Z.M.Muxeamedova, N.Jo‘raev, T.Mahmudov, A.Umarov, O.Fayzullaev, A.Xolbekov, X.SHayxova, SH.M.Sodiqova, S.M.Kalanova, D.A.Rahmonov, A.T.Turgunova, X.F.Akramov, R.X.Xudayberganov, R.T.Zohirov va boshqalar keksalarni avlodlaro munosabatlarni mustahkamlashdagi ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy vazifalarini atroflicha tadqiq qilganlar.

#### XULOSA

Xullas, qariyalarning ijtimoiy faolligi hamda ularni avlodlararo voriyisilikni ta‘minlashdagi o‘rni, mamlakatimizda qariyalarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, qariyalarning ijtimoiy faolligi yangilanayotgan O‘zbekistonda avlodlararo voriyisilikni ta‘minlash omili ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tizimli tadqiq etilgan. Halqimizning milliy qadriyatlari, an‘analari va mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, insonning ma‘naviy-ruhiy tarbiyasida qariyalarning ijtimoiy faolligini oshirishning ahamiyatiga bog‘liq jihatlarni milliy identifikatsiya talablari asosida yoritib berilgan. Avlodlararo voriyisilikni ta‘minlashda qariyalarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda Yangi O‘zbekistonda qariyalarning yoshlar ma‘naviy-kamolotining yuksalishidagi tutgan o‘rni kabi xususiyatlar ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilingan.

#### REFERENCES

1. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
2. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.
4. Meer-SHteyneg T., Zudgof K. Istoriya vrachevaniya v drevnosti i Srednie veka. Etnografiya Moskva Lomonosov 2022. - 216 s.